

## “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDAGI TOPONIMLAR

**Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi**

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi toponimlarning leksik xususiyatlari yoritildi. Dostonning onomastik ko‘lami, ya’ni atoqli otlarning qo‘llanilish masalalari tahlil etildi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, onomastika, toponimlar, badiiy asar nomlari, “Layli va Majnun” dostoni.

O‘zbek nomshunosligida onomastik birlıklarning umumnazariy masalalari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning badiiy matndagi estetik vazifalari, xususiyatlari tadqiq qilinmagan. Darhaqiqat, tilimizda kishi nomlari, turli geografik nomlar badiiy matnda muayyan obyekt nomigina bo‘lib qolmasdan, balki, ijodkorning xilma-xil badiiy niyatlarini ta’kidlash uchun ham xizmat qiladi. Bu esa onomastik birlıklarga nihoyatda boy tilimizning mazkur birliklar vositasida yuzaga keluvchi ifoda imkoniyatlarini aniqlash, o‘zbek badiiy matnlaridagi nomlarni xalqimizning tarixi, ma’naviy-madaniy qadriyatlari bilan birlgilikda o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, onomastik birliklar orasida eng ko‘p o‘rganilgani toponimlardir. Toponimlar asosan apellyativlar asosida hosil bo‘ladi. *Apellyativ* lotincha *appellativum – turdosh ot* so‘zidan olingan bo‘lib, atoqli otga qarama-qarshi qo‘yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo‘luvchi turdosh ot va boshqa til leksemalaridir [1: 16].

Toponimlarda xalqning o‘tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o‘z aksini topgan bo‘ladi. Shunga binoan toponimiya muayya til lug‘at boyligining muhim tarkibiy qismi, o‘tmish voqealari darakchisi sanaladi.

*Alisher Navoiy ijodi shunday ummonki, uni lisoniy jihatdan o‘rganish tadqiqotchidan juda ko‘p narsalarni bilishni talab qiladi. O‘zbek tilining bugungi taraqqiyot yo‘lini Navoiy asarlari tilisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.*

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi toponimlarni quyidagi guruhlarga ajratib o‘rgandik:

**1. Mamlakat, viloyat, vodiy, shahar, bog‘ va daryo nomlari:**

**Kashmir** – Osiyoda, Himolay va Tibetning o‘rtasida joylashgan tarixiy diyor. Kashmir to‘g‘risidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi 6 asrga oid manbalarda uchraydi. «Undagi yozuvlar Bobil mamlakatining katta yo‘liday, qamish qalamining ichi esa Bobil chohidir».

Har safhai nazmi gohi tahrir,

Fitna aro bir savodi **Kashmir**.

**Bobil** – Chohi Bobil – afsonaga ko‘ra Bobil atalgan shaharda bir quduq (choh) bo‘lib, ko‘kdan yerga tushib gunoh ishlar qilgan ikki farishta chohda yotar ekan, bu chohni sehr manbai ham deydilar. Bu yerda Xusrav Dehlaviy ijodini Bobilning katta yo‘liga, qalamining kavagini mazkur chohga o‘xshatiladi.

Ham xatlari shohrohi **Bobul**,

Ham kilkida javf chohi **Bobul**.

**Ka'ba** – musulmonlarning Makka shahridagi ziyoratgohi. Ka'ba musulmonlar uchun qibla hisoblanadi va u tomonga qarab namoz o‘qiladi.

E'joz ila sihr aro tafovut,

Bor onchaki **Ka'ba** ollida but

**Makka** – musulmonlar uchun muqaddas hisoblanadigan shahar.

Ne bodiya, balki **Makka** to Shom,

Dasht ahlig‘a xoni rahmating om.

**Yasrib** – Madina shahri shunday deb ham yuritilgan.

Gah **Yasrib** uza bu barq inib tez

Zulmatqa ashi'asi ziyorez.

**Shom** – Suriya va Damashqning sharq qo‘lyozmalarida uchraydigan nomi.

Bog‘i edi ravzadin pishopa,

**Shom** ahli yasab nishotxona.

\*\*\*\*\*

Gah **Shom** uza chatri bemadoro,

Subh aylabon anda oshkor.

**Farang** – Evropani anglatadi.

Kim, **Rum** aro chekib manori,

Boqturdi ani **Farang** sori.

Chun berdi jamolig‘a kushoyish

Ko‘rguzdi **Farangdin** namoyish.

**Vodiyi Ayman** – Arabistonidagi joyning nomi

Ey vodiyi **Ayman** ichra qo‘ychi,

Itmen sanga o‘z qoshingda qo‘ychi!

**Iram, Bog‘i Iram** – afsonaviy jannatsimon go‘zal va xushhavo bog‘. Bu baytda Layli Iram bog‘idagi gulga o‘xshatiladi.

O‘rtar edi bu o‘t ul sanamni,

Do‘zaxqa solib guli **Iramni**

**Jayhun** – Amudaryoning qadimgi nomi.

Ernim g‘ami ashkin etsa **Jayhun**,

Borurmu ekin ul ashk maygun?

## 2. Tog‘ va tog‘ cho‘qqilar nomlari (oronimlar).

**Najd** – Iroq va Hijoz o‘rtasidagi joy nomi. Majnun Laylidan ayrilib shu **Najd tog‘ cho‘qqisida** vahshiy hayvonlar orasida kun o‘tkazadi. Bu yerdan Layli qabilasining manzili ko‘rinib turardi.

Gah **Najd** uza o‘t choqib jahong‘a,

Shu’la chekib ul o‘t osmong‘a.

\*\*\*\*\*

**Najd** etagidin chiqib bulog‘i

Kim, toza bo‘lub bu nav' bog‘i.

**Arofat** – Makka shahri atrofidagi tog‘ nomi, ziyoratgoh.

*Majnunning atosi ani ishq boidiyasidin kelturub, Ka’ba tavofig‘a olib borg‘oni va ul munojot bahonasi bila ko‘nglidagi chirin yozg‘oni va duo qilmoq taronasi bila xotiridag‘i maxfiy maqosidin tilidin chiqorg‘oni va **Arafot** ahlidin arasot qo‘porg‘oni.*

**Tur** – Arabistonidagi tog‘. Afsonalarga ko‘ra, Tur tog‘ida Muso payg‘ambar xudoning jamolini ko‘rishga chiqadi.

Muso kibi haq ishiga ma’mur,

Taxti islom anga kelib **Tur**.

Bu **Tur** uza topqali tasalli,

Haq har nafas aylabon tajalli.

**Qof** – butun yer yuzini o‘rab olgan deb xayol qilingan afsonaviy tog‘.

Ham Turi fazilat uzra Muso,

Ham **Qofi** qanoat uzra Anqo.

**Izam** – Arabistondagi tog‘ning nomi.

Gohi **Izam** uzra lam'a afgan,

Shox uzra pechukki nori ayman.

**Abuqubays** – Qubays tog‘ining nomi.

Gah solib **Abuqubays** uza tob,

Andin bo‘lubon haram safoyob.

*Asarda ketirilgan toponimlarda xalqning o‘tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o‘z aksini topgan. Shunga binoan toponimiya muayyan til lug‘at boyligining muhim tarkibiy qismi, o‘tmish voqealari darakchisi sanaladi.*

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 41.
2. www.ziyo.com kutubxonasi. Navoiy A. Layli va Majnun. - B. 235.
3. Xudayarova, M., & Murodova, G. (2023). NAVOIY ASARLARIDA QO’LLANILGAN TAOM NOMLARI. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(1), 92-94.
4. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.